



TOK NAVLARINING SOVUQQA CHIDAMLILIK KO'RSATGICHLARI.

Jumanova Moxira Zoirovna

Xorazm viloyati Akademik M. Mirzayev nomidagi

BU va VITI tayanch doktranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14533890>

Annotatsiya

Xorazm viloyati sharoitida tokning sifatli mo'l hosil beruvchi navlarini yetishtirish, ularning sovuq havo haroratiga chidamliligini ananaviy dala usulida aniqlandi. Bunda kuzatilgan navlar bo'yicha zararlanish darajasi tahlil qilindi.

Kalit so'zlari: tok, xo'raki nav, kishmishbop nav, tokning bir yillik novdalari, sovuq harorat, zararlanish o'rsatkichlari.

Bugungi kunda uzumchilik sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2021- yil 28-iyuldagi martdagi "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi 5200-qarori bandlarida uzum yetishtirishga ixtisoslashtirish uchun qulay hududlarda eng maqbul maydonlarni belgilash, tokzorlar barpo qilish uchun va uzumchilikni rivojlantirish uchun ochiq tanlov asosida yer uchaskalarini ijaraga berish kabi chora tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy ishi tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi [1]. Bundan tashqari 2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi 260-sonli PQ da ham 2023-2024-yillarda yangi uzumzorlarni barpo qilish bo'yicha ko'rsatgichlar berib o'tilgan [2].

Tok o'simliklarning hududiy geografik sharoiti o'zgarganda ularning o'sishi va rivojlanish jarayonlarida bir qancha morfologik belgilarini o'zgarishlari kuzatiladi. O'simliklarni o'sishi va rivojlanishini, fenologik fazalarini kuzatish davrida adaptativ holatini baholashda, hamda ularning o'sish va rivojlanishi, fiziologik jarayonlarning qay darajada borishini aniqlash mumkun bo'ladi.

Tadqiqot usullari:

Tok o'simligining abiotik omillarga chidamliligi turli usullarda aniqlanadi. «Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур» (1999) uslubi bo'yicha, Baymetov K.I. "Mevali ekinlar jahon kolleksiyalarini o'rganish" uslubiy ko'rsatmasi, Bo'riyev X. Ch., Yeneliev N. Sh. "Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi" [3]. Akademik M. Mirzayev nomidagi BU va VITI





Xorazim viloyati filiali tajriba maydonida erta bahorda navlarning sovuq urishi foiz hisobida dala sharoitida o'rganildi. Tajriba har bir nav uchun uch variant (ko'milgan, yarim ko'milgan, ochiq) uch takrorlanishda, har bir navdan jami yigirma tupda o'rganildi.

Tadqiqot natijalari:

Respublikamizning qish oylari ob-havosi o'zgaruvchan, issiqdan sovuqqa keskin o'tish oddiy holdir. Bu paytlarda havo haroratining absolyut minimumlari Respublikamizning janubiy hududlarida $-20-25^{\circ}\text{C}$ ni shimoliy hududlarda $-35-38^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi. Meteorologik ma'lumotlar qattiq sovuqlar vaqti-vaqti bilan har 15-20 yilda takrorlanishini ko'rsatadi va bu sharoitda mevali ekinlarning to'la nobud bo'lish ehtimoli juda yuqori. Mevali ekinlar qish oylaridagi noqulay sharoitlardan saqlanish uchun tinim davriga kirishadi. Bu biologik xususiyat ming yillar davomida shakllanib kelgan. Tinim davrida ularning past haroratlarga bo'lgan chidamliligi eng yuqori bo'lib, tinim davri boshlanguncha va tamom bo'lgandan so'ng ularning sovuqqa chidamliligi ancha past bo'ladi.


Erta bahorda mevali ekinlar kolleksiya namunalarining qish oylaridagi sovuqlardan so'ng umumiy holati tekshirildi. Daraxt tanasi, shox-shabbalari, bir va ikki yillik novdalarning, vegetativ va generativ kurtaklarning holati nazoratdan o'tkazildi. Sovuqdan oldingi yil nav holati ko'rsatkichlari fenologik jurnal bo'yicha o'rganiladi, novdalarning o'sish xususiyati, vegetatsiya davrining davomiyligi, kasal va zarakunandalar bilan zararlanish va shikastlanish darajasi va boshqa muhim xo'jalik va biologik ko'rsatkichlar inobatga olindi va o'rganildi.


Bunda tajriba uch xil variantda uch takrorlanishda olib borildi. Jami o'n ikkita nav bo'lib har bir navdan yigirma tup ko'chatda foiz hisobida aniqlandi.

Bir-ikki yillik novdalar, asosiy shoxlarning sovuq urishi ham ballar bo'yicha quydagicha belgilangan:

- 0- daraxtlar shikastlanmagan;
- 1- ball- novdalarning 10%gacha sovuq urgan;
- 2- ball- novdalarning 11-25% sovuq urgan;
- 3- ball- novdalarning 26-50%sovuq urgan;
- 4- ball- novdalarning 51-75%sovuq urgan;
- 5- ball- novdalarning 75%dan ko'prog'i sovuq urgan.

Biz dala usulida tajriba variantlarida navlarning sovuq urish darajasini % larda hisoblab yuqorida ko'rsatilgan ballar bo'yicha baxoladik:






Bu diagrammadan shuni ko'rishimiz mumkinki sovuqqa chidamlilik darajasi navlar orasida nisbatan chidamsizroq 20 % ni Kishmish botir navida va eng past ko'rsatgichni Toyfi navida ko'rishimiz mumkin. Umumiy navlar kesimida avatar, husayni kelin barmoq, husayni oq, husayni muskat, lambarjini va helloven navlari o'rtacha zararlanish kuzatildi. Olingan natijalar yuqoridagi ballarda ifodalanganda bir va ikki ball oralig'ida kuzatildi. Bu natijalar nisbiy hisoblanib, bu bir yillik natijada sovuqdan zararlanish o'rtacha sovuqqa chidamli navlarda ham zararlanish foizi kam chiqishini qish oyi haroratining yengil kelishi bilan ifodalash mumkin. Bundan tashqari har bir nav uchun umumiy variantlar kesimida ko'milgan va yarim ko'milgan variantlarda deyarli zararlanish kuzatilmadi. Yuqoridagi ko'rsatgich faqat uchinchi variant (ochiq qoldirilgan) bo'yicha zararlanish ko'rsatgichlari hisoblanadi.

Xulosa. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki Xorazm viloyatida tok o'simligining iqlim sharoitlariga ta'siri turlicha ekanligi tajribalarimizda kuzatildi. Tok o'simligining turli navlarida sovuqqa chidamlilik ko'rsatgichlari kishmishbop navlarga nisbatan xo'raki navlarda biroz yuqori ekanligi kuzatildi. Viloyatlarning o'tgan 10 yillik staistik ma'lumotlari o'rganilganda ulardagi o'rtacha ko'rsatgich qish oylarida $-9,74-23,31^{\circ}\text{C}$ bo'lganligini hisobga olgan holda tajriba maydonidagi tok navlarini Xorazm viloyatida tuproq bilan ko'mib yetishtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. PQ-5200-son "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori-Toshkent, 2021 yil 29-iyul.





2. Mirziyoev Sh. PQ-260-son “Uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risidagi” Prezident Qarori-Toshkent, 2023 yil 3-avgust.
3. Буриев Х.Ч., Енилеев Н.Ш. ва б. Мевали ва резавор мевали ўсимликлар билан тажрибалар ўтказишда ҳисоблар ва фенологик кузатувлар методикаси. – Тошкент, 2014. – 64 б.

